

VULQONLARNI YER YUZIDA TARQALISHI YOKI YER BAG'RIDAGI "AJDAR" LAR

Sultonov Shuxrat Adxamovich

Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti

"Foydali qazilmalar geologiyasi va razvedkasi"

kafedrasida mustaqil tadqiqotchisi,

sultonovshuxrat87@gmail.com

Annotatsiya. Maqola vulqonlarni yer yuzida tarqalishi va hozirgi faol nuqtalarda kechish jarayonlari tahliliga bag'ishlangan. Hozirgi tektonik harakatlarning Yer sirtida namoyonlanishi natijasida hosil bo'layotgan vulqonlar haqida ayrim mulohazalar, faol litosfera plitalarida kechayotgan harakatlar natijasida o'zgarishlar, vulqonlarning otilishi hisobiga global iqlim o'zgarishiga oid matereallar tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: tektonik harakat, vulqon, lava, kul, g'ovak jinslar, qaynoq gazlar, suv bug'lari, plita, litosfera, arxipelag.

Abstract. The article is devoted to the analysis of the distribution of volcanoes on the earth and the processes of movement in the current active points. Some comments about volcanoes formed as a result of the manifestation of current tectonic movements on the Earth's surface, changes as a result of movements in active lithospheric plates, materials related to global climate change due to volcanic eruptions are analyzed.

Keywords: tectonic movements, volcano, lava, ash, porous rocks, hot gases, water vapor, plate, lithosphere, archipelago.

KIRISH (ВВЕДЕНИЕ/INTRODUCTION). Yer kurrasidagi qator ajoyib hodisalar mavjudki, ularning go'zalligi, jozibasi va rivoji kishini hayratga solsa, ikkinchi tomondan, insoniyat hayoti uchun turli xavf-xatarlarni tug'diradi. Sayyoramiz bag'rida haligacha davom etib kelayotgan tektonik harakatlarning Yer sirtida namoyon bo'lishi hosilasi bo'lmish vulqonlar shular jumlasidandir. Italiyadagi Etna yoki Vezuviy vulqonlari tarixda daxshatli halokatlarga sabab bo'lgan. Shu bilan birga, dunyodagi ba'zi bir vulqonlar shunday jozibaga egaki, ular yog'dirayotgan olovli yomg'irni tomosha qilish uchun dunyoning turli mamlakatlaridan sayyohlar tashrif buyurishadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA (ЛИТЕРАТУРА/METHODS)

Islandiya poytaxti Reykyavikdan 200 km uzoqlikda joylashgan Eyyafyatlayakudli (island tilida "katta tog'dagi qor" ma'nosini bildiradi) vulqonining 2010 yil 14 aprelda otila boshlashi Yevropada ko'pchilikni sarosimaga solib qo'ydi. Islandiyada yashovchi har 1000 kishidan 5 tasi zo'rg'a nomini talaffuz qila oladigan mazkur vulqonning uyg'onishi tufayli atmosferaga katta miqdordagi chiqarilgan kul o'ziga xos bulut parda hosil qilib, Yevropadagi ko'pgina mamlakatlarning osmonini to'sib qo'ydi. Bu holat qit'aning qator mamlakatlarida havo kemalari qatnovi to'xtashiga, millionlab yo'lovchilarning o'z manzillariga yetib ololmasliklariga sabab bo'ldi.



1-rasm. Etna vulkanining otilishi.
www.ellf.ru



2- rasm. Stromboli vulkanining otilishi.
www.copypast.ru

Shu bois, Yer bag'rida guyoki olov sochuvchi ajdarlar kabi tinch yotgan vulqonlar har qanday vaqtda uyg'onib, insoniyatga katta tashvish keltirishi mumkin. Vulqonlar - Yer po'stidagi yoriqlarda paydo bo'ladigan geologik hosila bo'lib ulardan vaqti -vaqti bilan Yer yuziga lava, kul, g'ovak jinslar, qaynoq gazlar va suv bug'lari otilib turadi. Mutaxassislarning fikricha, 10000 yil davomida kamida 1 marta otilgan vulqon harakatdagi vulqon deb atalishi mumkun.

Vulqon uyg'ongan paytda go'yoki uning tepa qismi - kraterda kuchli portlash yuz berib, Yer yuziga +700°C dan +1200°C gacha issiqlikka ega bo'lgan lava otiladi. Lava bilan birga katta miqdordagi kul ham havoga otilishi mumkun. Mazkur vaqtda hosil bo'ladigan energiya atom bombasi portlashiga nisbatan birinchi marta kuchliroqdir. Vaqt o'tishi bilan qotib qolgan lava, uning ustiga yotiqizilgan kul yangi landshaft hosil qiladi. Shuningdek, vulqon maxsulotlari ko'pincha tuproq uchun foydali o'g'it rolini o'ynashi mumkun.



3-rasm. Vulkan qumi.
www.ekosystema.ru



4-rasm. Vulkan kuli..
www.ekosystema.ru

Yer kurrasida harakatdagi vulqonlar Tinch okeani litosfera plitasi va Yevrosiyo litosfera plitasi hududida keng tarqalgan. Sayyoramizdagi eng yirik vulqonlar Malaya arxipelagi atrofida joylashgan. Ammo Islandiya vulqon harakatlari natijasida hosil bo'lgan ajoyib hududlardan biridir. Manbaalarga ko'ra, bu yerdagi vulqon harakatlari 60 million yildan beri davom etib kelmoqda. Islandiyandagi vulqonlarning eng g'aroyibi Laki vulqonidir. Laki tom ma'nodagi vulqonga, yani tepasidagi tutun

chiqayotgan tog' cho'qqisiga hech ham o'xshamaydi. Mazkur vulqon Yer po'stida hosil bo'lgan 25 km uzunlikdagi yoriqdan iborat. 1783 yilda otilgan Laki vulqoni 570 km² maydonini lava oqimi bilan ko'plab o'sha vaqtdagi Islandiya aholisi chorak qismining halok bo'lishiga sabab bo'lgan.

Ma'lumotlarka ko'ra, Yevropadagi eng qadimgi so'ngan vulqon Qora dengiz bo'yidagi Qora tog' bo'lib, so'ngi marta 150 million yil oldin otilgan. Hozirgi vaqtda Yer sharida 1340 dan ortiq harakatdagi vulqon ro'yxatga olingan, har yili ulardan taxminan 60 tasi harakatga keladi. Mavjud vulqonlarning uchdan bir qismi suv ostida joylashgan. Mutaxassislarning fikricha, har ikki yilda sayoramizda uchta yangi vulqon paydo bo'ladi. Hammasi bo'lib, so'ngi 1000 yillikda Yer kurrasida otilgan 627 vulqon to'g'risida ma'lumotlar bor.

Turli sifatleri jihatidan alohida ajralib turadigan Yer yuzidagi ko'plab ajoyib vulqonlar alohida ahamiyatga ega.

Yer yuzidagi eng yaqin borish mumkin bo'lgan vulqon Indoniziyaning Yava orolidagi Bromo vulqoni bo'lib, uning balandligi 2614 metr, 1804 yildan harakatda. Qiziqarli tomoni shundaki, mazkur obidaning go'zalligini tomosha qilishga ishtiyoqmandlar vulqon krateriga bevosita 245 ta beton pog'onadan iborat zina poya orqali chiqib borish mumkin.

Dunyodagi eng baland harakatdagi vulqon - Kotopaxi Ekvador davlatida joylashgan bo'lib, balandligi 5897 metr, 1532 yildan beri harakatda. 1877 yilda vulqondan otilgan lava oqimi 240 km uzoqlikda joylashgan qishloqgacha yetib borgan.

XULOSA (ЗАКЛЮЧЕНИЕ / CONCLUSION). Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash lozimki, butunjaxon yovvoyi tabiat fondi mutaxassislarning fikricha, vulqonlarning otilishi natijasida hosil bo'ladigan ulkan kul bulutlari 3-4 yilda butun Yer yuzini aylanib chiqishi, global iliqlashuv jarayonining birmuncha sekinlashishiga sabab bo'lishi mumkin. Jumladan, 1991 yilda Filippindagi Pinatubo vulqonining otilishi Yer yuzidagi haroratning 1,0⁰C ga pasayishiga sabab bo'lgan. Indonyadagi Tambora vulqonining 1815 yilda otilgan kul buluti quyoshni to'sib qolib, 1816 yil Yer yuzida haroratning "yozsiz yil", deb atalgan. Chunki usha yili Yevropa va Osiyoning bir qator mamlakatlarida yoz oylarida qor yog'ib, havoning keskin sovushi kuzatilgan.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

(ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА /REFERENCES).

1. Гадоев К., Бердиева С "Сайёрамиз мўжизалари" Тошкент-"Ўзбекистон" - 2012 й
2. Султонов.Ш.А., Петрохимические и геохимические особенности дайковых серии северной части Чакылкалянского мегаблока (Южный Узбекистан) «SCIENCE AND EDUCATION IN THE MODERN WORLD: CHALLENGES OF THE XXI CENTURY» материалы VII Международной науч.-прак. конф. (ХИМИЧЕСКИЕ НАУКИ) 3-12 бетлар. ТЕСНика, 2020.
3. Султонов Ш. А., Навотова Д.И., Алиева Д.И., Қашқадарё вилояти минерал ресурслари ва улардан фойдаланишнинг географик хусусиятлари. SCIENCE AND EDUCATION IN THE MODERN WORLD: CHALLENGES OF THE XXI CENTURY" NUR-SULTAN, KAZAKHSTAN, OCTOBER 2020, 12-15-betlar.
4. Чиникулов Х., Жўлиев А.Ҳ. "Умумий геология" Тошкент – 2011 й

5. Ярбобоев Т.Н., Очилов И.С., Султонов Ш.А.. Чакилкалян мегаблокининг маъдан-магматик тизимлари ва уларнинг апокарбонат олтин маъданларига истиқболлари // Инновацион технологиялар Ўзбекистон.- Қарши 2021. - № 2. - 15-20 б.

6. Ярбобоев Т.Н., Султонов Ш.А., Очилов И.С.. Основные дайковые серии северной части Чакилкалянского мегаблока и их потенциальная рудоносность (на примере Яхтонского дайкового роя, Южный Узбекистан) // Бюллетень науки и практики.- Нижневартовск, Россия, 2020 г. №11. С. 104-116.

7. Ярбобоев Т.Н., Султонов Ш.А., Очилов И.С.. Роль окружающей среды в размещении апокарбонатного Золотого оруденения Чакилкалянского мегаблока (Южный Узбекистан) // Бюллетень науки и практики. - 2021. - №6. - С. 38-51.

8. Sulonov Sh.A. Plitaichi rivojlanish bosqichlarida Chakilkalyan tog‘larining tektonik faollashuvi // “O‘zbekistonda tabiiy resurslardan foydalanish va qayta ishlash jarayonida atrof muhitni ifloslanish muammolari va yechimlari” mavzusida respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari to‘plami 2022 yil 25-26 mart 316-317 betlar.

9. Sulonov Sh.A. CHAKILKALYAN-QORATEPA TOG‘-KONCHILIK RAYONI YAXTON TUZILMASINING TEKTONIK RIVOJLANISHI VA GEOLOGIK HOSILALARI. ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ, 31(3), 174–184.

10. Yarboboyev T.N., Ochilov I.S., Sulonov Sh.A., Metasomatic rocks of the Chakylkalyan mountains and their relationship to mineralization. JOURNAL OF NEW CENTURY INNOVATIONS <http://www.newjournal.org/> Volume–38_Issue-1_October_2023. 86-92 betlar.

11. Yarboboev T., Sultanov Sh., Aminov F., Navotova D., NON-TRADITIONAL OILS: ANALYSIS OF REGIONAL DISTRIBUTION AND RESERVES OF HEAVY OIL AND NATURAL BITUMEN., Бюллетень науки и практики / Bulletin of Science and Practice <https://www.bulletennauki.com> Т. 6. №7. 2020 <https://doi.org/10.33619/2414-2948/56> 226-234-betlar

Internet ma’lumotlari:

www.geologiya.ru

www.ellf.ru

www.copypast.ru

www.ekosystema.ru